

Yoshlar uchun imkoniyatlar

2018 - yil 19 - aprel kuni Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti 4-sonli talabalar turar joyi tarbiyachi pedagogi Javlonbek Qutlimurotov Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetiga deputatlar bilan ijodiy uchrashuvni tashkil etish maqsadida talabalarni boshlab bordi.

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti "Taraqqiyot strategiyasi" majlislari zalida "Yoshlik" shaharchasi Kengashi hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi, O'zbekiston Yoshlar Ittifoqi bilan hamkorlikda, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Deputatlari bilan davra suhbat bo'lib o'tdi

Tadbirda Tojiyev Kozimjon O'ktamovich, Shukurov Elbek Xabibullayevich, Abdijamilov Joldasbay Zinatdinovich, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputatlari so'zga chiqdilar.

Tadbir davomida "Yoshlik" talabalar shaharchasida talabalarga yaratib berilgan imkoniyatlar, yoshlarni qiziqtirgan masalalar, rahbarlik lavozimlarida ishlash, kredit masalalari, imtiyozli grantlar, yoshlar muammolari, ularning amaliy yechimi masalalari yuzasidan va "Yoshlik" talabalar shaharchasining infrastrukturasini yaxshilashga doir takliflar ko'rib chiqildi.



**4 - TTJ tarbiyachi-pedagogi Javlonbek Qutlimurotov axboroti,
Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov**